




2021- yil yanvar-noyabr oylarida Xorazm viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi






2021- yil yanvar-noyabr

Dastlabki ma'lumotlar

Xizmatlar sohasining kengayishi va rivojlanishi, milliy daromadlarning oshishini hamda aholi uchun munosib turmush darajasini ta'minlashning hal qiluvchi omilidir. Xizmatlarning yuqori sifati va xilma-xilligi xodimlarning mehnat samaradorligini oshiradi, iste'mol xarajatlarini kamaytiradi, vaqtni tejashiga olib keladi hamda bo'sh vaqt samaradorligini oshiradi.





2021- yil yanvar-noyabr


Dastlabki ma'lumotlar



Xizmatlar sohasi bu — korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xil xizmatlar, ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan umumlashtirilgan toifadir.

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2021- yil yanvar-noyabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **7 648,0 mlrd. so'mga** yetib, uning nominal hajmi **1 782,6 mlrd. so'mga** oshdi. Taqqoslama ekvivalentda o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati **120,2 %** ni tashkil etdi.

Ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2021- yil yanvar-noyabr oylarida)





2021- yil yanvar-noyabr

Dastlabki ma'lumotlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2021- yil yanvar-noyabr oylarida)	Hajmi, mlrd. so'm	2020- yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da
Xizmatlar - jami	7 648,0	120,2
<i>shu jumladan:</i>		
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	380,8	119,7
Moliyaviy xizmatlar	1 502,6	128,1
Transport xizmatlari	1 851,6	116,9
<i>shu jumladan: avtotransport xizmatlari</i>	1 762,6	115,7
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	114,7	106,9
Savdo xizmatlari	2 022,8	113,1
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	227,6	131,2
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	325,7	112,2
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	150,9	128,4
Ijara xizmatlari	158,9	117,4
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	303,8	129,4
Shaxsiy xizmatlar	262,2	127,4
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	155,0	162,4
Boshqa xizmatlar	191,4	129,7



2021- yil yanvar-noyabr

Dastlabki ma'lumotlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlarning tarkibi

Nisbatan yuqori ko'rsatkich

Nisbatan past ko'rsatkich





2021- yil yanvar-noyabr

Dastlabki ma'lumotlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida eng katta ulushni savdo xizmatlari egallaydi. 2021- yil yanvar-noyabr oylarida ularning ulushi **26,4 %** ni tashkil etdi.

Kompyuterlar va uy-ro'zg'or buyumlarini ta'mirlash bo'yicha xizmatlar hajmida biroz o'sish qayd etilib, ularning ulushi **4,2 %** ga yetgan.

Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-noyabr oylarida savdo xizmatlarining ulushi umumiy hajmda **27,2 %** ni tashkil etdi. 2020- yilning shu davrida kompyuterlar va uy-ro'zg'or buyumlarini ta'mirlash bo'yicha xizmatlarning ulushi ham eng kichik bo'lgan – **3,4 %**.

2021- yil yanvar-noyabr oylarida yuqori o'sish me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (**62,4 %**), ta'lim sohasidagi xizmatlar (**12,2 %**), ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar (**31,2 %**), moliyaviy xizmatlar (**28,1 %**), sog'liqni saqlash xizmatlari (**28,4 %**) va boshqa xizmatlarda (**29,7 %**) qayd etildi.


Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-noyabr oylarida me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlarda yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi (**133,7 %**), moliyaviy xizmatlarda (**123,8 %**) o'sish kuzatildi.



2021- yil yanvar-noyabr

Dastlabki ma'lumotlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'atlari taqqoslanishi, % da





2021- yil yanvar-noyabr

Dastlabki ma'lumotlar



Savdo bu – tovarlarning aylanishini, ularning ishlab chiqarish sohasidan iste'mol sohasiga o'tishini ta'minlaydigan iqtisodiyot sohasidir. Ma'lum bir davlat ichida savdo tovarlarini zarur iste'molchiga yetkazib berish vazifasini bajaradi. U ulgurji va chakana savdoga bo'linadi.

2021- yil yanvar-noyabr oylarida, ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida savdo xizmatlarining ulushi **26,4 %** ni tashkil etdi, bu esa **2 022,8 mlrd. so'mga** to'g'ri keldi.


Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-noyabr oylarida ularning hajmi **1 597,5 mlrd. so'mga** yoki umumiy hajmining **27,2 %** ga to'g'ri kelgan.

Savdo xizmatlari

2020- y.
yanvar-noyabr
Xizmatlar hajmi
1 597,5 mlrd. so'm

O'sish sur'ati
96,3 %

Ulushi
27,2 %



2021- y.
yanvar-noyabr
Xizmatlar hajmi
2 022,8 mlrd. so'm

O'sish sur'ati
113,1 %

Ulushi
26,4 %




2021- yil yanvar-noyabr

Dastlabki ma'lumotlar

2021- yil yanvar-noyabr oylarida chakana savdo xizmatlarining ulushi umumiy savdo xizmatlari hajmining qariyb to'rttdan uch qismini, aniqrog'i **26,4 %** ini tashkil etdi.

Savdo xizmatlari tarkibi (2021- yil yanvar-noyabr oylarida)

Avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi, jumladan, ularni ta'mirlash xizmatlarini qo'shgan holda



Ulgurji savdo xizmatlari (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari)

8,7 %

76,1 %

Avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar



15,2 %



Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-noyabr oyida chakana savdo ulushi **77,8 %** ga yetgan.



2021- yil yanvar-noyabr

Dastlabki ma'lumotlar



Moliyaviy xizmatlar hajmi moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlari uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

Moliyaviy xizmatlar

(2021- yil yanvar-noyabr oylarida)



Moliyaviy xizmatlar hajmi **1 502,6** mlrd. so'mni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-noyabr oylarida ularning hajmi **1147,7** mlrd. so'mga teng bo'lgan.

2021- yilning o'tgan davrida ularning umumiy xizmatlar hajmidagi ulushi **19,6** % ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-noyabr oylarida ularning ulushi **19,6** % ni tashkil etgan.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan moliyaviy xizmatlar hajmini **354,9** mlrd. so'mga ko'payishi kuzatildi.

Moliyaviy xizmatlarning o'sishi **126,5** % ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-noyabr oylarida ularning o'sish sur'ati **123,8** % ga yetgan.



2021- yil yanvar-noyabr

Dastlabki ma'lumotlar

Moliyaviy xizmatlar umumiy hajmida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning ulushi **91,8 %** ni tashkil etdi.

2021- yilning yanvar-noyabr oylari yakuniga ko'ra, sug'urta xizmatlarining ulushi **5,0 %** oralig'ida qayd etildi.

Moliyaviy xizmatlar tarkibi

(2021- yil yanvar-noyabr oylarida)



Yordamchi moliyaviy faoliyat

Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-noyabr oylarida moliyaviy xizmatlar umumiy hajmining **92,5 %** ini sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar tashkil etgan. Sug'urta xizmatlarining ulushi **4,9 %** ga to'g'ri kelgan.



2021- yil yanvar-noyabr

Dastlabki ma'lumotlar



Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, AKT rivojlanishi mamlakatning raqobatbardoshlik darajasiga bevosita ta'sir qiladi, katta hajmdagi ma'lumotlarni to'plash va umumlashtirishga imkon beradi, strategik darajada boshqaruv uchun katta imkoniyatlar ochadi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (2021- yil yanvar-noyabr oylarida)

**2020- y.
yanvar-noyabr**

**313,2
mlrd. so'm**

111,8 %

5,3 %

Xizmatlar hajmi

O'sish sur'ati

**Jami hajmdagi
ulushi**

Hajmning o'sishi

67,6 mlrd. so'mga

**2021- y.
yanvar-noyabr**

**380,8
mlrd. so'm**

119,7 %

5,0 %






2021- yil yanvar-noyabr

Dastlabki ma'lumotlar


Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmida eng katta ulushni telekommunikatsiya xizmatlari (simli va mobil aloqa xizmatlari, internet tarmog'i, yo'ldoshli aloqa xizmatlari va boshqalar) egallab, **94,4 %** ni tashkil etdi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining tarkibi

2020- y.
yanvar-noyabr



2021- y.
yanvar-noyabr



Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-noyabr oylarida telekommunikatsiya xizmatlarining ulushi **96,2 %** ga yetgan.



2021- yil yanvar-noyabr

Dastlabki ma'lumotlar



Amaliyot shuni ko'rsatadiki, bilimlar va xizmatlar iqtisodiyotini shakllantirishning eng muhim sharti kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlashning rivojlangan tizimi hisoblanadi. Amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida mamlakatga turli sohalarda yuqori malakali mutaxassislar kerak. Yuqori malakali kadrlar innovatsion iqtisodiyotning harakatlantiruvchi kuchi bo'ladi.

Ta'lim sohasidagi xizmatlar

**275,6
mlrd. so'm**

**Ko'rsatilgan bozor
xizmatlari hajmi**

**325,7
mlrd. so'm**

**2020- y.
yanvar-
noyabr**



**2021- y.
yanvar-
noyabr**

2021- yil yanvar-noyabr oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi **325,7** mlrd. so'mga yetib, bozor xizmatlari umumiy hajmidagi ulushi **4,3 %** ni tashkil etdi. 2020-yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **112,2 %** ni tashkil etdi.

92,6 %

O'sish sur'atlari, % da

112,2 %

Taqqoslash uchun: 2020- yilning yanvar-noyabr oylarida xizmatlar hajmi **275,6** mlrd. so'mga teng bo'lgan. 2019- yilga nisbatan o'sish **92,6 %** darajasida qayd etilgan.



2021- yil yanvar-noyabr

Dastlabki ma'lumotlar

Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatilgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.

Yashash bo'yicha xizmatlar hajmi, qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar



**Xizmatlar hajmi,
mlrd. so'm**

93,3

114,7

2020- y.
yanvar-
noyabr

2021- y.
yanvar-
noyabr



**O'sish
sur'ati, % da**

88,0

106,9

2020- yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmi **21,4** mlrd. so'mga ortdi.

2021- yil yanvar-noyabr

Dastlabki ma'lumotlar

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi

**2021- y.
yanvar-noyabr**

83,2 %

16,8 %



14,2 %

85,8 %

**2020- y.
yanvar-noyabr**

**Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash
bo'yicha xizmatlar**

Yashash bo'yicha xizmatlar

2021- yil yanvar-noyabr oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning umumiy hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlarning ulushi **83,2 %** bilan ustunlik qildi.

Taqqoslash uchun: 2020- yilda ularning ulushi **85,8 %** ni tashkil etgan.



2021- yil yanvar-noyabr

Dastlabki ma'lumotlar



Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi

bu – sog'liqni saqlash muassasalarining tibbiy va sanitariya xizmatlari, shuningdek, tashkilotlar va tibbiyot korxonalari, stomatologiya, fizioterapevtik, gomeopatik poliklinikalar, kosmetologiya klinikalari, giyohvand moddalarni iste'mol qiluvchilarni davolash ambulatoriyalari, laboratoriya va sanitariya epidemiologiya markazlari tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlarining qiymatidir.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar

2020- y. yanvar - noyabr

2021- y. yanvar - noyabr

**107,8
mlrd. so'm**

**Xizmatlar
hajmi**

**150,9
mlrd. so'm**

96,2 %

**O'sish
sur'ati**

128,4 %

1,8 %

**Xizmatlarning
jami hajmidagi
ulushi**

2,0 %




2021- yil yanvar-noyabr

Dastlabki ma'lumotlar



Zamonaviy O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollari, milliy va mahalliy manfaatlarni hisobga olgan holda, respublikaning har bir iqtisodiy tumani va viloyatlarining barcha resurslardan oqilona foydalanishiga bog'liqdir.

Hududlar kesimida ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibi, % da (2021- yil yanvar-noyabr oylarida)



2021- yil yanvar-noyabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmidagi eng katta ulush Urganch shahriga tegishli - **34,4 %** (2020- yilda **35,5 %**). Xizmat ko'rsatish sohasining eng past ko'rsatkichlari Tuproqqal'a tumanida kuzatilgan – **2,5 %**.



2021- yil yanvar-noyabr

Dastlabki ma'lumotlar

Shahar va tumanlar bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2021- yil yanvar-noyabr oylarida)	Hajmi, mlrd. so'm	O'sish sur'ati, % da	
		2021- y.	2020- y.
Xorazm viloyati	7 648,0	120,2	102,7
Urganch shahar	2 632,2	117,5	104,3
Xiva shahar	336,8	140,3	103,9
<i>tumanlar:</i>			
Bog'ot	453,9	125,6	104,5
Gurlan	401,6	117,7	100,7
Qo'shko'pir	417,0	120,4	106,7
Urganch	630,7	118,8	85,2
Hazorasp	575,3	120,1	100,2
Tuproqqal'a	188,4	154,5	100,5
Xonqa	509,1	115,6	100,4
Xiva	426,2	132,6	112,1
Shovot	416,1	118,0	103,4
Yangiariq	352,2	117,0	106,6
Yangibozor	308,5	122,8	110,8

**) Shahar va tuman bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni inobatga olgan holda.*



2021- yil yanvar-noyabr

Dastlabki ma'lumotlar



Xizmatlar sohasining rivojlanish darajasi aholining hududiy va ijtimoiy harakatchanligini, yangi xo'jalik hududlarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish samaradorligini va moddiy mahsulotlar iste'molini oshirishni ta'minlaydi.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari

Xizmatlar hajmi

Hajmning o'sishi

**4 017,0
ming so'm**

**889,1 ming
so'mga**

2021- yil yanvar-noyabr oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **4 017,0** ming so'mga yetdi.

2020- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati **118,4 %** ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2020- yilning yanvar-noyabr oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **3 127,9** ming so'mni tashkil etgan.

118,4 %

O'sish sur'ati